Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

MUQIMIY HAYOTI VA IJODI: IJTIMOIY - TARIXIY SINOVLAR CHORRAHASIDA

Xolboyova Madina Javlonovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
+998931321142
kholboyova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan o‘zbek adabiyotining yirik vakili Muqimiyning hayoti va ijodi “sinovlar chorrahasi” tushunchasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning tarjimai holi, ijtimoiy-madaniy muhit bilan aloqasi va ijodiy merosini shakllantirgan omillar keng qamrovli yondashuv orqali o‘rganiladi. Muqimiy asarlarining qo‘lyozma manbalari va keyingi nashrlari o‘rtasidagi farqlar matn jihatidan tahlil qilinib, g‘oyaviy o‘zgarishlar natijasida ayrim mazmun qatlamlari yo‘qolganini ilmiy asosda ko‘rsatadi. Yangi manbalar asosida qayta tiklangan she’riy parchalar yuzlab baytlarni tashkil etadi, ilgari ilmiy muomalada bo‘lmagan o‘nlab asarlarning aniqlanishi esa Muqimiy merosining asl ko‘lamini kengaytiradi. Maqolada qiyosiy tahlil va statistik usullari yordamida shoir merosining tiklanish dinamikasi, ya’ni qayta kashf etilgan g‘azal, bayt va boshqa janrlar ulushi umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari Muqimiy ijodi shunchaki badiiy-estetik hodisa emas, balki o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarini aks ettiruvchi tarixiy muhim manba ekanini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, shoir hayotidagi sinovlar - moddiy qiyinchiliklar, kasallik, ijtimoiy beqarorlik va mafkuraviy bosimlar - uning poetik dunyoqarashi va obrazlar tizimiga bevosita ta’sir qilgani aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Muqimiy shaxsini yangicha anglash va uning o‘zbek adabiyotshunosligidagi o‘rni va ahamiyatini qayta baholash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Muqimiy, adabiy meros, matnshunoslik, qo‘lyozma manbalar, ideologik tahrir, XIX asr adabiyoti, Qo‘qon adabiy muhiti, poetik tafakkur, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, badiiy tahlil, tarixiy rekonstruksiya, o‘zbek mumtoz adabiyoti.

ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МУКИМИ В КОНТЕКСТЕ СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИХ ИСПЫТАНИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются жизнь и творчество Мукими - одного из выдающихся представителей узбекской литературы конца XIX - начала XX века - на основе концепции «перекрёстка испытаний». В исследовании с применением комплексного подхода рассматриваются биография поэта, его связь с социально-культурной средой, а также факторы, сформировавшие его творческое наследие. С текстологической точки зрения сопоставляются рукописные источники произведений Мукими и их последующие издания, что позволяет выявить утрату отдельных смысловых слоёв в результате идеологических изменений. На основе новых источников реконструированы поэтические фрагменты, насчитывающие сотни байтов, а выявление десятков ранее не изученных произведений существенно расширяет реальный масштаб литературного наследия поэта. С использованием сравнительного анализа и статистических методов обобщается динамика восстановления наследия Мукими, включая долю вновь обнаруженных газелей, байтов и других жанров. Результаты исследования показывают, что творчество Мукими представляет собой не только художественно-эстетическое явление, но и важный исторический источник, отражающий социально-экономические противоречия своей эпохи. Кроме того, установлено, что жизненные испытания поэта - материальные трудности, болезнь, социальная нестабильность и идеологическое давление - оказали непосредственное влияние на его поэтическое мировоззрение и систему образов. Полученные результаты

обосновывают необходимость нового осмысления личности Мукими и переоценки его роли и значения в узбекском литературоведении.

Ключевые слова: Мукими, литературное наследие, текстология, рукописные источники, идеологическая редакция, литература XIX века, кокандская литературная среда, поэтическое мышление, социально-экономическая среда, художественный анализ, историческая реконструкция, узбекская классическая литература

MUQIMI'S LIFE AND WORK: AT THE CROSSROADS OF SOCIO-HISTORICAL CHALLENGES

Abstract: This article analyzes the life and work of Muqimi, a prominent representative of Uzbek literature who lived in the late 19th and early 20th centuries, through the concept of the "crossroads of trials." The study adopts a comprehensive approach to examine the poet's biography, his relationship with the socio-cultural environment, and the factors that shaped his creative legacy. The differences between manuscript sources of Muqimi's works and their later published versions are analyzed from a textual perspective, revealing that certain layers of meaning were lost as a result of ideological transformations. Based on newly identified sources, reconstructed poetic fragments amount to hundreds of verses, while the identification of dozens of previously unstudied works significantly expands the actual scope of Muqimi's literary heritage. Using comparative analysis and statistical methods, the article systematizes the dynamics of the restoration of the poet's legacy, including the proportion of rediscovered ghazals, verses, and other genres. The findings demonstrate that Muqimi's literary output is not merely an artistic and aesthetic phenomenon, but also an important historical source reflecting the socio-economic contradictions of his time. Furthermore, it is established that the trials in the poet's life - including material difficulties, illness, social instability, and ideological pressure - had a direct impact on his poetic worldview and system of imagery. The results of the study substantiate the need for a renewed interpretation of Muqimi's personality and a reassessment of his place and significance in Uzbek literary studies.

Keywords: Muqimi, literary heritage, textual studies, manuscript sources, ideological editing, 19th-century literature, Kokand literary environment, poetic thinking, socio-economic context, literary analysis, historical reconstruction, Uzbek classical literature.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri atoqli shoir Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida munosib o'rin tutadi[1]. Ushbu davrda Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar milliy adabiyot taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhitida shakllangan ijodkorlar o'z davrining murakkab tarixiy sharoitlarini badiiy tafakkur orqali ifodalagan. Shu muhitda yetishgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy nafaqat lirika va satira janrlarida yuksak asarlar yaratgan, balki ijtimoiy ong, xalq ruhiyati va davr ziddiyatlarini aks ettirgan deya tan olingan muhim adabiy shaxslardan biridir. Uning hayoti va ijodi bir yoqlama romantik yoki faqat estetik hodisa emas, balki "ijod va sinovlar chorrahasi"da shakllangan murakkab ijtimoiy-biografik jarayon sifatida o'rganilishi darkor.

Muqimiy merosining bugungi ilmiy talqini uzoq yillar davomida turli mafkuraviy ta'sirlar ostida shakllanganini inkor etib bo'lmaydi. Ayniqsa, sovet davrida amalga oshirilgan "g'oyaviy tahrir" natijasida uning ayrim she'riy parchalari nashrdan chiqarib tashlangan va asarlarida mazmuniy o'zgarishlar kiritilgan bo'lgan. So'nggi manbalar, jumladan, qo'lyozmalar asosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Muqimiy asarlaridan yuzlab misralar qayta tiklangan, ilgari ilmiy muomalada

[1] Bu haqda qarang:Til va adabiyot ta'limi jurnali,2015-yil,9-son.O. Karimov.Muqimiy ijodi klaster tahlilda.20-bet

bo‘lmagan o‘nlab g‘azal va boshqa janrdagi asarlar aniqlangan. Bu holat ilmiy qarashlarni tubdan yangilash zarur ekanligini taqazo etadi. Statistik ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, ayrim manbalar asosida 200 dan ortiq misra qayta tiklangan va 10 dan ziyod yangi asar aniqlangan. Bu esa Muqimiy merosining asl hajmi va mazmuni ilgari tasavvur qilinganidan ham kengroq ekanini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, Muqimiy hayotini oddiy biografik ketma-ketlik sifatida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sinovlar tizimi sifatida talqin etish ilmiy jihatdan muhimdir. Moddiy qiyinchiliklar, kasalliklar va ijtimoiy adolatsizliklar bilan bo‘lgan to‘qnashuvlar shoirning poetik qarashlariga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ayniqsa, satirik ruhdagi asarlarida jamiyatdagi tabaqalanish, ma’muriy tizimdagi muammolar va insoniy qadriyatlarning yemirilishi chuqur ifodalangani yaqqol aks etgan. Bu esa Muqimiy ijodini faqatgina badiiy hodisa jihatidan emas, balki o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettiruvchi manba sifatida ham o‘rganish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Muqimiy hayoti va ijodini “ijod va sinovlar chorrahasi” konsepsiyasi asosida keng tahlil qilishdir. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik va statistik umumlashtirish usullaridan foydalanilib, shoir merosining shakllanish omillari, hayotidagi burilish nuqtalari va ijodiy rivojlanishi yoritiladi. Natijada Muqimiy shaxsini yangi ilmiy nuqtai nazardan anglash, zamonaviy adabiyotshunoslik kontekstida qayta talqin qilish va uning adabiy merosini haqqoniy baholash imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek adabiyotshunosligida Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sanalib, bu boradagi tadqiqotlar turli bosqichlarda turlicha metodologik asoslarda olib borilgan. Dastlabki izlanishlarda shoir merosi ko‘proq umumiy adabiy-tarixiy kontekstda yoritilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda uning asarlari matnshunoslik, poetika va ijtimoiy-tahliliy yondashuv asosida chuqurroq o‘rganila boshladi. Xususan, G‘ulom Karimov, Aziz Qayumov kabi olimlarning ishlari Muqimiy ijodini Qo‘qon adabiy muhitining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilishda muhim ilmiy asos yarata oldi[2]. Ushbu tadqiqotlarda shoirning ijodiy merosi davr adabiy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda yoritilib, uning badiiy uslubi va mavzu doirasi aniqlashtirildi.

Keyingi yillarda Muqimiy merosini qayta ko‘rib chiqish jarayonida matnshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Quldosh Pardayev tomonidan tayyorlangan “Biz bilmagan Muqimiy” to‘plami shoir asarlarining asl matnlarini tiklash va ilmiy muomalaga kiritishda yangi bosqichni boshlab berganini inkor etib bo‘lmaydi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, ilgari nashr etilgan matnlarda mafkuraviy tahrirlar mavjud bo‘lgan va ular asar mazmunining ayrim jihatlarini bir muncha o‘zgartirib yuborgan. Xususan, qo‘lyozma manbalar asosida 200 dan ortiq misra, jumladan, 60 dan ortiq bayt va bir qator yangi g‘azallar qayta tiklangani aniqlangan[3]. Bu esa Muqimiy merosining to‘liq hajmini aniqlash va uning badiiy-estetik qiymatini haqqoniy baholash zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Muqimiy ijodini o‘rganishda ikki asosiy yo‘nalish ustunlik qiladi: birinchisi - an’anaviy adabiy-tarixiy yondashuv bo‘lib, unda shoirning hayoti va ijodi davr kontekstida o’rganiladi; ikkinchisi esa zamonaviy matnshunoslik va tahliliy yondashuv bo‘lib, unda asarlarning asl matni, ularning variantlari va ideologik o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda Muqimiy ijodi ijtimoiy-satirik fenomen sifatida ham baholanib, undagi xalq hayoti, jamiyat tanqidi va ijtimoiy ziddiyatlar aks ettirilishi alohida e’tibor markaziga olingan.

Mazkur maqolada yuqoridagi ilmiy an’analardan kelib chiqib, kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik, statistik umumlashtirish hamda tahliliy-deskriptiv usullar tashkil etadi. Tarixiy-qiyosiy usul orqali Muqimiy ijodi boshqa zamondosh adiblar faoliyati bilan solishtiriladi va uning adabiy muhitdagi o‘rni aniqlanadi.

[2] Karimov G‘. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent, 1987, 245–252-betlar.
[3] Pardayev Q. *Biz bilmagan Muqimiy*. – Toshkent: Muharrir, 2019, 4–5-betlar.

Matnshunoslik yondashuvida esa qo‘lyozma va nashr variantlarini taqqoslash orqali asarlarning asl shaklini tiklashga e’tibor qaratiladi. Bu jarayonda ayniqsa qo‘lyozma manbalar va ularning ilmiy tavsiflari asosiy manba sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek, statistik umumlashtirish usuli yordamida qayta tiklangan she’riy parchalar, yangi aniqlangan asarlar soni va ularning umumiy hajmi tizimlashtirildi. Ushbu usul Muqimiy merosining miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash va kengaytirish, shuningdek uning ilmiy o‘rganilish darajasini baholash imkonini beradi. Tahliliy-deskriptiv yondashuv esa shoir ijodidagi asosiy mavzular, uslubiy xususiyatlar va ijtimoiy mazmunni izoh etishda qo‘llanildi.

Natijada, yuqoridagi metodologik yondashuvlar uyg‘unligi Muqimiy hayoti va ijodini nafaqat tarixiy-biografik nuqtai nazardan, balki matnshunoslik va ijtimoiy-tahliliy jihatlardan ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa shoir merosini zamonaviy ilmiy talablarga mos ravishda qayta baholash va uning adabiyot tarixidagi haqiqiy o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

BIOGRAFIK TAHLIL

Muqimiy hayoti va ijodini tahlil qilishda uning biografiyasini oddiy tarixiy ketma-ketlik sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit, shaxsiy sinovlar va ijodiy shakllanish o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlar tizimi sifatida ko‘rish muhimdir. Sababi shoirning poetik dunyosi uning yashagan davri, shaxsiy tajribalari va ijtimoiy mavqeidan ajralgan holda tushunilmaydi.

Avvalo, Muqimiyning bolalik davri va uning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat ko‘rsatgan ijitmoiy muhitiga e’tibor qaratish joiz. U Qo‘qon adabiy muhitida voyaga yetgan va ma’lumki, bu muhit o‘z davrida Markaziy Osiyodagi eng faol madaniy-ijodiy markazlardan biri hisoblangan. Mazkur muhitda diniy-ma’rifiy bilimlar bilan birga, she’riyat va adabiy muloqot an’analari kuchli rivojlangan edi. Shu sababli Muqimiy ijodida an’anaviy sharqiy poetika hamda xalqona ruh uyg‘unlashib ketganini kuzatish mumkin. Muqimiy xalq dard va quvonchlarini o’z asarlarida ifoda eta olgani uchun ham oddiy xalq o’rtasida mashhur bo’lib ketgan edi[4]. Bu jihat uning ijodida tilning sodda va ta’sirchan bo‘lishi, obrazlarning esa hayotiyligi va real voqelikka yaqinligi bilan izohlanadi. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining aksariyatida xalq bilan bevosita aloqadorlik kuchli bo‘lgan va bu jihat Muqimiyda ayniqsa o‘z aksini ko‘rsatadi.

Shoir hayotidagi moddiy va ijtimoiy qiyinchiliklar uning ijodiy yo‘nalishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Muqimiy ko‘p hollarda barqaror ijtimoiy mavqega ega bo‘lmagan, turli kasblar bilan shug‘ullangan, jumladan, mirzalik faoliyati orqali hayot kechirgan. Bunday iqtisodiy beqarorlik uning asarlarida keskin ijtimoiy tanqid shaklida aks etgan. Muqimiy yerli savdogarlar, boylar, chor amaldorlarini, ularning laganbardor, poraxo’r, tilyog’lamachi ekanliklarini o’tkir badiiy mahorat bilan qalamga oladi[5]. Ayniqsa, satirik ruhdagi she’rlarida jamiyatdagi adolatsizlik, mansabdorlarning loqaydligi hamda oddiy xalqning og‘ir ahvoli ochiq ifodalanadi. Mazkur jihatni umumiy tahliliy nuqtai nazardan ham kuzatish mumkin: Muqimiy merosining muhim qismi satirik va tanqidiy mazmundagi asarlardan iborat bo‘lib, bu holat uning ijodi kuchli ijtimoiy yo‘nalishga ega ekanini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, shoir hayotidagi sinovlar faqat iqtisodiy muammolar bilan cheklanmagan. Uning sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolari, shaxsiy iztiroblari va ruhiy kechinmalari shoir lirikasida chuqur aks etgan. Lirik asarlarda uchraydigan iztirob, hijron, beqarorlik motivlari shoirning real hayotiy tajribasining badiiy ifodasidir. Bu esa Muqimiy ijodini faqat estetik emas, balki psixologik-biografik manba sifatida ham o‘rganish imkonini beradi.

Muqimiyning sayohatlari ham uning ijodiy dunyoqarashini kengaytirgan muhim omillardan biridir. Xususan, “Sayohatnoma” asari orqali shoir turli hududlardagi ijtimoiy hayotni kuzatib, uni tanqidiy ruhda tasvirlaydi. Ushbu asarda faqat geografik sayohat emas, balki ijtimoiy kuzatuv va xalq hayotini tubdan o‘rganish kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. So‘nggi tadqiqotlar natijasida mazkur

[4] Mamadjanova M.V. O‘zbek hajvchiligi rivojida Muqimiy ijodining o‘rni. Bitiruv malakaviy ishi. – Namangan, 2016.
[5] G‘afur G‘ulom. Asarlar. O‘n tomlik. 8-tom. T., Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.20-22-betlar.

asarning ayrim qismlari qo‘lyozma manbalar asosida qayta tiklangani, yangi bandlar aniqlangani va shu orqali uning mazmuniy qamrovi yanada kengaytirilganini ko‘rish mumkin. Bu esa Muqimiy sayohatlarining oddiy geografik tasvir emas, balki tizimli ijtimoiy tahlil xarakteriga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shoirning kasbiy faoliyati va ijtimoiy mavqei ham uning ijodida bevosita aks etgan. Mirza sifatida davlat tizimiga yaqin bo‘lishi unga jamiyatdagi boshqaruv mexanizmlarini ichkaridan kuzatish imkonini bergan. Natijada ma’muriy tizimdagi keskin hamda realistik muammolar uning satirik asarlarida aniq holda ifodalanadi. Bu jihat Muqimiy ijodini boshqa zamondoshlari ijodidan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardan biri ekanligini ta’kidlash darkor.

Muqimiy yashagan davr - XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Markaziy Osiyo siyosiy jihatdan beqaror, iqtisodiy jihatdan esa murakkab bosqichni boshdan kechirayotgan edi. Qo‘qon xonligining tugatilishi, Rossiya imperiyasi ta’sirining kuchayishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi adabiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Bu jarayonlar Muqimiy ijodida bevosita aks etib, uning asarlarida eski va yangi dunyoqarash o‘rtasidagi ziddiyatlar ifodalangan va shu sababli ham, shoir ijodini davr kontekstidan ajratilgan holda tahlil qilish ilmiy jihatdan to‘liq natija bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy biografiyasi uning ijodiy merosini to‘liq anglashda markaziy o‘rin tutadi. Uning bolalik muhiti, ijtimoiy qiyinchiliklari, kasbiy faoliyati va tarixiy davri o‘zaro uyg‘un holda shoirning poetik tafakkurini shakllantirgan. Bu jihat Muqimiy ijodini nafaqat badiiy hodisa, balki murakkab ijtimoiy-biografik fenomen sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

IJOD VA G‘OYALAR TAHLILI

Muqimiy ijodini tahlil qilishda uning asarlarini alohida-alohida janrlar kesimida emas, balki yagona g‘oyaviy tizim doirasida ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki shoirning poetik merosi ichki uyg‘unlikka ega bo‘lib, unda kulgi, tanqid, iztirob va xalqona tafakkur o‘zaro uzviy bog‘langan. Muqimiy nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki uni baholaydi, talqin qiladi va o‘z davriga nisbatan muayyan pozitsiyani ilgari suradi.

Avvalo, uning asarlarida yetakchi o‘rin tutuvchi mavzulardan biri - ijtimoiy tanqiddir. Shoir jamiyatdagi tengsizlik, mansabdorlarning loqaydligi, axloqiy inqiroz kabi holatlarni keskin va ba’zan kinoyali ruhda tasvirlaydi. Bu tanqid oddiy norozilik emas, balki ongli kuzatuv va ichki qarama-qarshiliklar mahsulidir. Jumladan, Muqimiy satirasida kulgidan yetakchi asosiy vosita sifatida foydalanilgan bo‘lib, jamiyatdagi muammolarni fosh etishda muhim ideologik qurol sifatida xizmat qiladi. Uning satirik she’rlarida kulgi yuzaki emas, balki mazmunan teran, o‘quvchini o‘yga majbur qiladi. Shu jihati uni oddiy satirik shoirlardan yetarlicha ajratib turadi.

Muqimiy ijodining yana bir muhim yo‘nalishi - xalq hayotini realistik tasvirlashdir. Shoir asarlarida oddiy insonning kundalik turmushi, dardi, orzusi va ijtimoiy muammolari markaziy o‘rinni egallaydi. Bu esa uning ijodini elit adabiyotdan ko‘ra xalqona adabiyotga yaqinlashtiradi. Uning she’riyati tilda ham, mazmunda ham sodda va tushunarli bo‘lib, keng omma tomonidan qabul qilinadigan darajada ifodalangan. Bu holat tasodifiy emas, balki shoirning ongli estetik tanlovidir.

Muqimiy ijodida kulgi va tanqidning uyg‘unlashuvi ayniqsa e’tiborga loyiqdir. U kulgini nafaqat estetik zavq manbai sifatida, balki ijtimoiy samarali hamda estetik qurol sifatida qo‘llaydi. Masalan, ayrim she’rlarida dangasalik, rasmiyatchilik yoki ijtimoiy befarqlik hajv qilinadi. Bu hajv esa ayni obrazlar orqali beriladi, umumiy abstrakt tushunchalar orqali emas. Shu sababli uning satirasi hayotiy va ishonarli ko‘rinadi.

Muqimiy ijodida yana bir muhim qatlam - ichki kechinmalar va shaxsiy iztiroblarning badiiy ifodasidir. Uning lirikasida hijron, yolg‘izlik, tushkunlik motivlari tez-tez uchraydi. Bu holat shoirning shaxsiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning biografik tajribasi she’riy shaklga o‘tganligini ko‘rsatadi. Natijada, uning she’rlari ikki qatlamli mazmunga ega bo‘ladi: tashqi – ijtimoiy tanqid va ichki – ma’naviy iztirob.

Muqimiy uslubiga kelsak, unda o‘ziga xos sintez mavjud. U bir tomondan mumtoz adabiyot an’analariga tayansa, ikkinchi tomondan, xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan faol foydalanadi. Bu uning she’riyatini tabiiy va samimiy qiladi. Uning tilida murakkab badiiy qurilishlar kam uchraydi, aksincha, sodda, ammo ta’sirchan ifodalar ustunlik qiladi. Shuning uchun uning asarlari nafaqat o'qiladi, balki oson esda qoladi.

So‘nggi matnshunoslik tadqiqotlari ham Muqimiy ijodining g‘oyaviy qatlamini chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Qo‘lyozma manbalar asosida qayta tiklangan she’rlar orasida ilgari nashrlarda mavjud bo‘lmagan satirik va ijtimoiy mazmundagi parchalar aniqlangan bo‘lib, bu holat shoir ijodining aslida yanada keskinroq va tanqidiyroq bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, mavjud nashrlar orqali shakllangan tasavvur Muqimiy ijodining to‘liq manzarasini bermagan, yangi manbalar esa uning g‘oyaviy qamrovini kengaytirmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Muqimiy ijodi - bu kulgi va iztirob, tanqid va samimiyat, xalqona ruh va individual tafakkurning murakkab uyg‘unligidir. U o‘z davrini nafaqat tasvirlagan, balki uni anglashga va baholashga harakat qilgan kam sonli ijodkorlardandir. Shu nuqtai nazardan uning merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi va yangi ilmiy talqinlarga doimiy ochiq qolmoqda.

NATIJA

Tadqiqot natijalari Muqimiy hayoti va ijodi o‘rtasida uzviy va sabab-oqibatga asoslangan bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shoirning shaxsiy hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, kasbiy beqarorlik hamda ruhiy kechinmalar uning asarlarida satirik tanqid va lirik iztirob uyg‘unligida aks etgan. Bu holat Muqimiy ijodining shakllanishida biografik omillar hal qiluvchi rol o‘ynaganini tasdiqlaydi.

Muqimiy oddiy ijodkor emas, balki ijtimoiy fikr bildiruvchi, muammolarni ochiq-oshkora aytgan ziyoli edi. U o‘zining satirik asarlari orqali jamiyatdagi tengsizlik, boshqaruv tizimidagi illatlar, axloqiy muammolarni tanqid qildi, adabiyotni ijtimoiy ongga ta’sir etuvchi vosita darajasiga ko‘tardi.

Shoir ijodining o‘z davriga ta’siri esa uning xalqona til va sodda uslub orqali keng ommaga yetib borgani bilan belgilanadi. So‘nggi matnshunoslik tadqiqotlari natijasida aniqlangan va qayta tiklangan yuzlab misralar hamda yangi asarlar Muqimiy ijodining aslida yanada kengroq ijtimoiy-g‘oyaviy ta’sirga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

TAHLIL

Mazkur natijalar Muqimiy ijodini faqat estetik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-biografik fenomen sifatida qayta talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shoir hayoti va ijodi o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik uning asarlarini tushunishda biografik va tarixiy kontekstni asosiy metodologik mezon sifatida qo‘llash lozimligini anglatadi. Bu jihat Muqimiy satirasining tasodifiy emas, balki ijtimoiy zarurat natijasida shakllangan ongli badiiy strategiya ekanini tasdiqlaydi.

Avvalgi adabiyotshunoslik tadqiqotlarida, jumladan, professor G‘.Karimov 7521-raqamli bayoz xususida so‘z yuritib, to‘plamda 212 ta she’riy asar bo‘lib, shundan 199 tasi Muqimiyniki ekanligini ta’kidlaydi. Olim bu to‘plamni shoirning dastxat bayozlari sirasiga qo‘shmagan[6].

Istiqlol yillarida ham Muqimiy asarlari qo‘lyozmalari ustida ilmiy izlanish olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining eng so‘nggi nashri[7]ga kiritilmagan ayrim she’rlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola etildi. Jumladan, adabiyotshunos A.Madaminovning xizmati bilan 1997-yili “Yangi bayoz” to‘plami chop etildi. Adabiyotshunoslardan A.Turdialiev 2010-yilda shoirning “Bog‘ aro”, E.Ochilov 2009-yili “Ko‘nglum sandadur” nomli to‘plamlarini nashr ettirdi[8].

[6] Karimov G‘. Muqimiy ijodiy merosining manbalari // Muqimiy. Asarlar. II tom. – Toshkent, 1960. – 159-bet.
[7] Karimov G‘. Muqimiy. Asarlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
[8] Mamadjanova M.V. O‘zbek hajvchiligi rivojida Muqimiy ijodining o‘rni. Bitiruv malakaviy ishi. – Namangan, 2016.

Xususan, Qo‘ldosh Pardayev tomonidan olib borilgan matnshunoslik izlanishlari Muqimiy asarlarining dastlabki qo‘lyozma variantlari bilan keyingi nashrlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Qayta tiklangan yuzlab misralar va yangi aniqlangan asarlar shoir ijodining aslida yanada keskinroq ijtimoiy tanqidga ega bo‘lganini isbotlaydi. Bu esa avvalgi ilmiy qarashlar bilan solishtirganda muhim farqni yuzaga keltiradi: Muqimiy ijodi faqat umumiy ijtimoiy kuzatuv bilan cheklanib qolmay, balki ancha chuqur va bevosita tanqidiy xarakter kasb etadi.

Demak, olingan natijalar nafaqat Muqimiy ijodining yangi qirralarini ochib beradi, balki o‘zbek adabiyotshunosligida mavjud ilmiy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ham ko‘rsatadi. Bu esa kelgusida Muqimiy merosini yanada chuqurroq, manba asosida o‘rganish istiqbollarini belgilaydi.

XULOSA

Muqimiy hayoti va ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlik uning butun adabiy merosini tushunishda asosiy kalit vazifasini bajaradi. Shoirning shaxsiy hayotidagi sinovlar - ijtimoiy beqarorlik, moddiy qiyinchiliklar va ruhiy iztiroblar - uning asarlarida nafaqat aks etadi, balki ularning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Natijada Muqimiy ijodi oddiy badiiy tasvir emas, balki o‘z davrining ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy muammolariga berilgan ongli va chuqur javob sifatida namoyon bo‘ladi. Uning satira va lirikani uyg‘unlashtirgan uslubi orqali jamiyatdagi ziddiyatlar ochib berilib, adabiyot ijtimoiy fikr shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda Muqimiy merosi nafaqat tarixiy va adabiy qadriyat, balki zamonaviy tafakkur uchun dolzarb manba bo‘lib qolmoqda. Uning kulgi orqali tanqid qilishi, xalqona yondashuvi, haqiqatni ochiq aytishga intilishi bugungi jamiyatda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shu jihatdan Muqimiy ijodi o‘zbek adabiyotida sotsial tanqid va badiiy realizm an’analarining shakllanishidagi muhim bosqich sanaladi va yangi ilmiy talqinlarga ochiqligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘afur G‘ulom. Asarlar. O‘n tomlik. 8-tom. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
2. Karimov G‘. Muqimiy. Asarlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
3. Karimov G‘. Muqimiy ijodiy merosining manbalari // Muqimiy. Asarlar. II tom. – Toshkent, 1960.
4. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1987.
5. Karimov O. Muqimiy ijodi klaster tahlilda // Til va adabiyot ta’limi. – 2015. – 9-son.
6. Mamadjanova M.V. O‘zbek hajvchiligi rivojida Muqimiy ijodining o‘rni. Bitiruv malakaviy ishi. – Namangan, 2016.
7. Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiy. – Toshkent: Muharrir, 2019.